

SHUKURULLO MARDONOV
UMIDA ZOKIROVA



PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI



37.013

11-26

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHUKURULLO MARDONOV
UMIDA ZOKIROVA

**PEDAGOGIKA
NAZARIYASI
VA TARIXI**

O'quv qo'llanma



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»

2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

- 11897 -

Mardonov Sh., Zokirova U.

Pedagogika nazariyasi va tarixi [Matn]: o'quv qo'llanma /Sh. Mardonov, U. Zokirova.
- Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. - 272 b.

Mas'ul muharrir
prof. G.I. Muxamedov

Taqrizchilar
prof. U.I. Mahkamov
prof. A.T. Nurmanov

Respublikamizda oliy ta'limni rivojlantirish mazmuni va o'qitish texnologiyalari, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqining badiiy merosi yuksak estetik qadriyatlarini negizida ma'naviy-estetik tarbiyalash orqali kasbiy kompetentligini tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari oshirilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishi" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqi badiiy merosining yuksak qadriyatlarini negizida ma'naviy-estetik tarbiyalash, ularning kasbiy pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatning reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchi va kreativ darajalarini puxta egallashlari uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarflik kasb etadi. Qo'lingizdagi o'quv qo'llanmasi ushbu muammoning yechimiga qaratilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmasi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi xodimlari, talabalar hamda hozirgi ta'lim-tarbiya muammolari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23 noyabrdagi 500-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7090-2-7

SO'Z BOSHI

Jahonda rivojlangan mamlakatlar globallashuv sharoitlarida madaniy-ma'naviy taraqqiyot yo'lida madaniy-badiiy meros, madaniy-axloqiy, ma'naviy-estetik qadriyatlarini saqlab qolishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, o'qitishning metodik ta'minotini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillash-tirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etishga muhim omil sifatida qaralmoqda. YUNESKONing Bosh Assambleyasida¹ O'rta asrlar Sharq mutafakkirlarining dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, ularning boy ilmiy-ma'rifiy merosi, erishilgan natijalarini muntazam o'rganish orqali fan va ta'lim tizimini rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jahon fan va madaniyatini o'rganish jarayonida talabalarning badiiy-estetik qadriyatlarining mazmun-mohiyatini anglay olishiga erishish, badiiy-madaniy merosga internal (o'zi) va eksternal (o'zga) motivatsiyasini shakllantirish, pedagogik idrok qilish vositasida talabalarning ko'nikma va malakalarini rivojlan-tirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda ta'limni mehnat bozori talablari asosida diversifikatsiyalash, o'qitishni yangi strategiyalarga moslash-tirish, ta'limning axborot bazasini kasbiy pedagogik faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning ilmiy-amaliy negizlari bo'yicha, jumladan, Angliyaning (Cambridge University), Germaniyaning (Technische Universitat), Rossiyaning (Moskva davlat universiteti, Sank-Peterburg davlat universiteti), Chexiyaning (University of Ostrava) kabi Yevropaning rivojlangan mamlakatlarining etakchi universitetlarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim va tarbiya sifatini baholashning xalqaro normalarini joriy qilish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatli munosabatlarning qaror topganlik darajasini belgilash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Respublikamizda oliy ta'limni rivojlantirish mazmuni va o'qitish texnologiyalari, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, demok-

¹ YUNESKO Bosh Assambleyasining O'rta asrlar Sharq allomalarining dunyo tamaddumida tutgan o'rnini// Xalqaro konferentsiya, 1998-y. Parij sh.

ratlashtirish, bo'lajak o'qituvchilar-ni o'zbek xalqining badiiy merosi yuksak estetik qadriyatlarini negizida ma'naviy-estetik tarbiyalash orqali kasbiy kompetentligini tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishi"¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqi badiiy merosining yuksak qadriyatlarini negizida ma'naviy-estetik tarbiyalash, ularning kasbiy pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatning reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchi va kreativ darajalarini puxta egallashlari uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 25 yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2020-yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Estetik tarbiya, ma'naviyat, shaxsning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini shakllantirish muammosi ham chet ellarda, ham mahalliy pedagogikada, shu jumladan milliy-umumestetik qadriyatlar darajasida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –Toshkent, 2017. –39 b.

hal qilinmoqda.

Mamlakatimiz pedagogikasida estetik, ma'naviy (asosan axloqiy) tarbiya muammosi: falsafiy va estetik jihatdan - S.Sh. Shermuxamedov, T.Mahmudov [99; 175] lar tomonidan; umumiy uslubiy va nazariy jihatdan – A.Abdunabiyev, Sh.Quronboyev, Sh.Kurbonov, T.Muradimova, S.Ochilov, [29; 90; 89; 102; 114]lar tomonidan tahlil qilingan.

Ma'naviyat, shu jumladan milliy qadriyatlar muammosi A.Azizxonov tomonidan [35; 36]; yosh avlodning milliy an'analar asosida ma'rifiy, ma'naviy fazilatlarini shakllantirish – N.Azizxodjayeva, M.Inomova, Sh.Mardonov, O.Musurmanova, S.Nishonova, K.Xashimov [37; 73; 98; 103; 111; 169; 170] lar tomonidan o'rganilgan.

O'quv-tarbiyaiy jarayonida milliy ma'naviyatni tiklash, yoshlarni estetik (badiiy) tarbiyalashda milliy merosning o'rni va roli S.K. Annamuratova, D.A. Djamolova, S.X. Fayzullina, R.X. Xasanovlarning asarlarida o'z aksini topgan [40; 62; 162; 168].

Talabalarning estetik tarbiyasi, bu jarayonda shaxsni shakllantirish, jumladan san'at asarlarini o'rganish jarayonida shaxsning ma'naviy-estetik fazilatlarini bilan bog'liq ba'zi jihatlar Rossiyalik olimlar E.V.Kvyatkovskiy, B.T.Lixachev, P.M. Yakobson, O.Suxodolskaya-Kuleshova [80; 95; 180; 152]lar tomonidan o'rganilgan.

O'quv qo'llanmasida, shuningdek bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatlar tizimi haqidagi bilimlarni aniqlashtirishga doir o'quv-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi; talabalarda badiiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning samarali didaktik ta'minoti ishlab chiqildi, tadqiqot natijalarining bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini takomillashtirishga doir samarali yondashuvlar ishlab chiqildi.

Qo'llanmada respublikamizda ushbu muammo bilan shug'ullanib kelayotgan olimlar izlanishlarining umumlashtiri-lishi asos vazifasini o'taydi.

Kitob qo'lyozmasini o'qib, o'z fikr-mulohazalarini bildirgan ushbu sohaning etuk olimlari pedagogika fanlari doktorlari, professorlar Sh.S.Sharipov, U.I.Mahkamov, A.T.Nurmanovlarga o'z minnadorchiligimizni bildiramiz.

Qo'llanma haqidagi xolisona fikrlarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz (Jizzax davlat pedagogika instituti, Sharof Rashidov shox ko'chasi, 4-uy).

I BO'LIM. PEDAGOGIKA TARIXI KURSIGA KIRISH. ENG KADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Reja:

1. Pedagogika tarixi fanining predmeti, vazifasi va metodologik asosi.
2. Birinchi prezident I.A.Karimov tarixiy merosdan foydalanish haqida.
3. Eng qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti yodgorliklarida inson tarbiyasiga oid fikrlar.
4. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida.
5. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari.

Tayanch tushunchalar: "Pedagogika tarixi", "Pedagogika tarixi predmeti", "Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi", "Tarixiy meros", "Avesto", "Ma'rifiy meros", "Ma'naviyat", "Tarixiy xotirasiz - kelajak yo'q", "Sharq Yevropaning muallimidir". Tarbiya - ijtimoiy hodisa, qadimiy yodgorliklar, qadimiy madaniyat, dastlabki yozuvlar, o'gitlar, "Avesto"da axloqiy uchlik, O'rxun-Enisey yodgorliklari, eng qadimgi davrlarda insonda ulug'langan asosiy hislatlar.

1.1. Pedagogika tarixi fanining predmeti, vazifasi va metodologik asosi

Ko'hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadryatlarining mustaqillik tufayli qayta tiklanishi va rivojlanishiga muyassar bo'ldi.

Sobiq sho'ro tuzumi davrida o'zbek xalqining madaniyati, maorifi, ijtimoiy ma'naviy, ma'rifiy sohadagi yutuqlari kamsitilib, asosan maorif va madaniyat G'arbda rivojlanib, keyinchalik Sharqqa ta'sir etgan degan fikrlar singdirib kelingan edi.

Mutaqilligimiz sharofati shundaki, tarixni buzib ko'rsatishga chek qo'yildi. Turon zaminida yashagan xalqlarning ma'rifiy-madaniy qarashlari eng qadimgi davrdan yuksak ekanligi olimlarimiz tomonidan

isbotlab berildi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilm-parvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, sahovat kabi umuminsoniy fazilatlarini ruxida tarbiyalab kelgan, xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi.

O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda **zardushtiylik** dini keng yoyilgan davrda ham pedagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" ning bizgacha etib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan.

Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralangan. Chunki, dastlab Aleksandr Make-donskiy boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlari, so'ngra Qutayba ibn Muslim rahbarligidagi arab istilochilari olib borgan talonchilik, vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yo'qotib yuborildi. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarini, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tadbiiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir.

Mustaqillikka erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Yevropa pedagogikasini asos qilib oldik va o'rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasi bilan G'arb pedagogikasining eng ilg'or an'analarni o'rganishga e'tiborni qaratishdan iboratdir. Chunki ilmu-fan avval Sharqda taraqqiy etgan. Buyuk nemis olimi Xerler: «Sharq Yevropaning muallimidir» -deganda xaq edi.

Yuqoridagi fikrlarning o'zi madaniyat, ma'rifat Sharqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo'la oladi. Chunki, savodxonlik maktablarining, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimgi manbalarda «Avesto», So'g'd, Baqtriya, Urxun-Enisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida yuzaga kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar bo'lganligidan dalolat beradi. Xaqiqatdan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifamizdir.

Bu esa qadimiy boy ma'rifiy merosimizning qimmatli manbalarini